

HOZIRGI O`ZBEK NASRIDA AYOL OBRAZI**(Javlon Jovliyevning “Ayol” hikoyasi misolida)****Anvarjonova Shohidaxon Mansur qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, 2 - kurs talabasi.

Norkulova Shaxnoza Tulkinovna

TISU dotsenti (PhD) Termez (Uzbekistan)

shaxnoza_norkulova@tues.uz

ORCID: 0009-0008-7546-7613

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19479674>

Annotatsiya. Mazkur asarda ayol obrazining murakkab va ko‘p qirrali ruhiyati badiiy tasvir orqali ochib beriladi. Muallif ayolning ichki kechinmalari, sabr-toqati, mehr-muhabbati hamda hayot sinovlariga bardoshlilik masalalarini chuqur yoritadi. Asarda ayol nafaqat oila timsoli, balki o‘z orzu-intilishlariga ega, ichki kurashlar bilan yashovchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi ayol qalbidagi iztirob va umidlarni ta’sirchan ifodalab, o‘quvchini uni yanada chuqurroq tushunishga undaydi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek nasri, ona, ayol, obraz, mehnat, sabr toqat, “Ikki qalb uchrashuvi”, “Ayol”, “Qo‘rqma”, “Issiq qor”.

Abstract. This work offers a literary exploration of the complex and multifaceted female psyche. The author provides a profound analysis of a woman’s internal experiences, endurance, and devotion, as well as her resilience in the face of existential challenges. Within the narrative, the female figure is conceptualized not merely as a domestic archetype, but as an individual defined by distinct aspirations and internal conflicts. By poignantly articulating the tribulations and hopes inherent in the female soul, the author compels the reader toward a more nuanced and deeper understanding of her character.

Keywords: Uzbek prose, mother, woman, character, labor, patience, “The Meeting of Two Souls”, “Woman”, “Don’t Be Afraid”, “Hot Snow”.

Аннотация. Данное произведение представляет собой художественное исследование сложной и многогранной женской психологии. Автор дает глубокий анализ внутреннего мира женщины, её долготерпения и преданности, а также её жизнестойкости в контексте экзистенциальных испытаний. В нарративе женская фигура концептуализируется не просто как семейный архетип, а как самостоятельная личность, движимая собственными стремлениями и внутренними противоречиями.

Эмоционально выразительное описание душевных переживаний и надежд героини направлено на формирование у читателя более глубокого и нюансированного понимания женского характера.

Ключевые слова: Узбекская проза, мать, женщина, образ, труд, терпение, «Встреча двух сердец», «Женщина», «Не бойся», «Горячий снег».

O‘zbek nasrida vatan, ona, ayol mavzulari hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Bu mavzularni har bir ijodkor o‘ziga hos tarzda ifodalaydi. Kimdir ayolni mehnatda, qiyinchilikda bardosh bilan kurashganini tasvirlasa, yana kimdir ayolning sog‘inch azobiga chidaganligi, uning sadoqati va vafosi orqali tasvirilaydi. Nasrda bo‘lsa istiqlol davri yozuvchi va dramaturg Javlon Jovliyev hikoyalardan iborat “Ikki qalb uchrashuvi”, “Ayol”, “Qo‘rqma” kabi kitoblari chop etilgan. “Issiq qor” (Usmon Nosir haqida) drammasi Muqumiy teatrida sahnalashtirilgan.

Asarlari rus, ingliz va turk tillariga tarjima qilingan. Javlon Jovliyev 2021-yilning bestseller kitobi sanalgan “Qo‘rqma” romani muallifidir. Romanda 1922-yilda Turkistondan Germaniyaga yuborilgan talabalarning ayanchli taqdiri va bugungi kun yoshlari fojiasi tilga olingan. Yozuvchi o‘zining “Ayol” hikoyasida ayolni quyidagicha tasvirlaydi. Fermerning oddiygina yonlanma ishchisi mehnatkash va o‘z ishini sidqidildan bajaruvchi ishonchli ishchi lekin og‘ir mehnatdan anchagina toliqqan, qo‘llari qorayib yorilib ketgan, kun sayin o‘zi tabiatdan oriqlik bo‘lgan ayol yana ham cho‘kib borar, toliqqanini o‘zi ham sezar lekin oilasi uchun tinim bilmaydigan fidokor ayol edi. Ayol oilaning yagona boquvchisi uch o‘g‘il va ichkilikka ruju qo‘ygan erini boqardi. Eri hech qayerda ishlamas lekin ayol farzandlari uchun eriga toqat qilishga majbur edi. Lekin bu holat farzandlariga ham tasir qilmay qolmasdi. Katta farzandi huddi otasining o‘zi, bir ish qilmas takasaltang bo‘ladi. Ayolning yagona umidi o‘rtancha o‘g‘lidan. Bu o‘g‘li o‘t o‘rar, onasiga uy ishlariga qarashardi.

Ayolaslida mehnatdan emas o‘ziga bo‘lgan e‘tiborsizlikdan kundan kun so‘nib boradi. Oilaning butun harajati, tashvishi ayolning nozik gardaniga yuklangan edi. Ayol hech nimadan nolimay barcha g‘am alamni ichiga yutadi. Bu g‘am alamlar ayolni ich-ichidan yemirib borardi. Ayol bir necha kunlik pullarini to‘plab do‘kondan narsalar harid qiladi lekin har kungidan boshqacharoq qimmatroq narsalar. Bolalariga rangli suv, shirinliklar, qimmat guruch, va “oqidan” “achchiq suv” oladi. Uyga qaytgach har kungi ishlarini qiladi. Ovqat kechroq pishgani sababli bolalari zarda qiladi. Ayol oshni o‘rtaga qo‘yib eriga, bolalariga qarab chiqadi. Barcha ovqatlanish bilan bant hech kim ayolga e‘tibor ham bermasdi. Ayol dasturxon ustiga shirinliklar, rangli suv va “achchiq suv”ni qo‘yadi. Bolalar xursand lekin keyin ayol hammani e‘tiborini tortadi. Ayol “achchiq suv”ni ochishga harakat qilar, qo‘llari qaltirab ko‘zlaridan yosh oqardi. Ayol suvni ochib piyolaga quyadi va tug‘ilgan kunim bilan deb suvni ichadi.

Javlon Jovliyev bu asarda haqiqiy sharq ayolini sabr toqatini, bardoshini mahorat bilan ochib beradi. Har qanday holatda oilasini tashlab ketmagan haqiqiy mehnatkash va sabrli ayolning ohir oqibat sabri tugagani, barcha qiyinchiliklarga, mehnatlarga chidagani lekin unga bo‘lga e‘tiborsizlikka ohir oqib chidolmaganini tasvirlaydi. Ayol atrofdagi odamlarni gap so‘ziga e‘tibor bermay oilasini saqlab qolishga harakat qiladi. Balki bu hodisalarga ya‘ni: erini ro‘zg‘orga yordam bermaganiga bolalarining bunday betkachopar, tanbal bo‘lishiga ayolning o‘zi aybdordir. Balki ayol ham ishlamaganida eri va bolalari ozgina bo‘lsa ham qiynalganida, balki ayollning qiyinchiliklarini tushunib yetishar, eri hech bo‘lmaganda o‘zini bo‘sa ham eplashga harakat qilardi. Bu asarda ayol shu darajada soda, mehnatkash shu bilan birgalikda halol va o‘z ishini sidqi dildan bajaradigan ayol sifatida tasvirlangan. Ayolning o‘z ishini yaxshi bilishini isboti sifatida muallif piyozpoya keraksiz o‘tlarga to‘la. Begonasi shunchalik ko‘pki, qaysi biri o‘t, qaysisi piyoz ekanini tajribasiz ishchilar hadeganda bilolmasdi. Lekin bu narsalar ayolga cho‘t emasdi deb yozadi yozuvchi. Bu satrlardan bilishimiz mumkinki ayol ancha yillardan beri bu ish bilan shug‘ullanishi, ishining shu darajada ustasi bo‘lganidan hatto fermer orqasidan uni ishini tekshirmaydi. Muallif hech bo‘lmaganda shu fermer ayolning ishini qadrlashini yozadi buning isboti sifatida fermer boshqa ishchilardan ko‘ra ayolga ko‘proq saxiylik qilardi deb yozadi muallif. Ayolning charchagani, toliqqanini esa ayolning yoz tugamay holsizlanib kuchi qaytganidan sezishimiz mumkin. Har doim uch kunda o‘tab tugatadigan piyoz poyani mana to‘rtinchi kun bo‘libdiki lekn tugata olmaganini, aslida bu kuni u dam olmoqchi bo‘lgani lekin ishni tugata olmaganini aytadi.

Ish vaqti beliga ohista urib qo'yishi, ishi tugaganidan so'ng unga masxaromuz tarzda boqib turgan quyoshga qarab boshi aylanib o'tirib qolishi va uzoq yo'talishi, ish boshqaruvchidan kelishilgan pulni olayotgan vaqti qimtinibgina rahmat aytib qo'yishi, ish haqqini olayotganida titrashidan uning charchagani sezilib turar, lekin ishboshqaruvchi buni halol mehnatning xuzurbaxsh titrog'i deb bilardi. Keyin keksa ishboshqaruvchi arzimagan pulga mamnun, kovushini sudraganicha pildirab ketayotgan juvonning kundan-kunga cho'kib borayotgani, qoqsuyak gavdasiga qarab achinadi.

Ayol do'kondan chiqqanida ham sotuvchi unga eringizni ham ishlatingda semirtirib boqavermasdan deydi. Ayol bu gapga e'tibor bermasdan uyi tomon shoshada. Asarning aynan shu joyida ayolning eri tasvirlanadi. Ayolning eri rostan ham semiz, qorin qo'yan, endigina uyqudan turgan, ishkom ostidagi ariqqa oyog'ini tiqib, yana shu suvga uzum yuvib yerd. Katta o'g'li ham huddi otasining o'zi u ham to'lachadan kelgan, yalqov, gap olmas bola edi. Og'lining gap olmas bola ekanligini uning onasiga qilgan muomalasidan bilishimiz mumkin. Ayol oshni suzib kelganda bolalari onasiga:

- Shunaqa ham kech pishiraszmi? Hademay futbol boshlanadi-ku! degan gaplaridan bilib olishimiz mumkin. Lekin ayol na eriga va na bolalariga hech bir so'z demaydi.

Asar davomida ayol juda kam joydagina gapiradi u ham bo'lsa do'kondan narsa sotib olganida, va pul olgan vaqtida. Qolgan vaqtlarda esa ayolning his tuyg'ulari gapiradi.

Uning piyozpoya ho'rsinib qo'yishi, bor puliga narsa olayotgan vaqt pulini mahkamroq ushlashi, sotib olib yana qaytarib bersammikan deb ichida o'ylashi, qiynalib topgan puliga ichi achishi va hatto erini uyda bamalol yotganda ko'ganda ham indamaydi.

Barchasini ichiga yutadi sabr qiladi ahir bu sharq ayoli. Har qanday holatda har qanday vaziyatda bolalaridan turmush o'rtog'idan nolimaydigan vos kechmaydigan, o'z oilasi uchun hech qanday og'ir va qiyin mehnatlardan ham qochmaydigan. Oilasi uchun doimo harakat qiladigan ayol bu faqatgina sharq ayollari bo'ladi. Javlon Jovliyev asar so'ngida ayolni ohir oqibat sabr bardoshi tugagani go'yoki suv bilan liq to'la kosaga ohirgi tomchi suv tushgani va kosadagi suvlar to'lib toshgani kabi tasvirlaydi. Ammo bu baribir o'zbek ayoli, irodali va kuchli metin bardoshli sharq ayoli ekanligini va shu jihatlari bilan ham ahamiyatli ekanligini ta'kidlamochi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Javlon Jovliyev "Oila davrasida" gazetasi 2017-yil, 9-son.
2. Javlon Jovliyev "Qo'rqma" asari Toshkent, "Nihol" nashriyoti 2020-yil
3. Faxriddin Nizom, Akrom Malik, "Qo'rqma kimni qo'rqitti".